XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-iyun VII-9-85-9-131-K/25 Shirin shahar

Shirin shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi “Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-93-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat-reja”sining ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi “Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”PQ-93-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat-reja”sining ijrosini taminlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shirin shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasining 2025-yil 4-iyundagi 1/013-33-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Boyovut tumandagi jami 1 ta (1 ta Shirin MFY 638,8 ga) mahalla fuqarolar yig‘ini 638,8 ga yer uchastkasi Shirin shahri tarkibiga o‘tkazilsin.

4. Boyovut tumanidan Shirin shahri tarkibiga o‘tkazilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga, kartografik chizmasi 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shirin shahri bilan chegaradosh bo‘lgan Xovos va Boyovut tumanlari o‘rtasidagi ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 3-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi NORMATOV ULUGBEK ERMAMATOVICH

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-9-85-9-131-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Shirin shahriga qo‘shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Guliston shahri hamda Boyovut, Mirzaobod tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan boshlangich 1-nuqtaga tutashadi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°15'36,731", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°07'37,507").*

A dan B gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 1-2-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 7-markaziy zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 476 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofada Do‘stlik kanaliga tutashadi, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3576 metr masofani o‘tib, Toshkent viloyati hamda Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'57,628", sharqiy uzunlik 69°09'08,872").*

B dan D gacha Shirin shahri yerlari bilan 2-4-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanali bo‘yidan quruq chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofada tomorqa chegarasiga o‘tib, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 969 metr masofada zovurga o‘tib, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 422 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 536 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 178 metr masofada ariqqa o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 874 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'53,407", sharqiy uzunlik 69°07'25,937").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i ariq bo‘yidan avtomobil yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 443 metr masofada ariqqa o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 238 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 7 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr masofada zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi

bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 179 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 212 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 153 metr masofada zovurga o‘tib, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 517 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 364 metr masofani o‘tib, so‘ngra avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 604 metr masofani o‘tib, Shirin shahri va Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘yidagi 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'14,537", sharqiy uzunlik 69°06'22,977").*

D dan A gacha Boyovut tumani yerlari bilan 4 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

4-nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 985 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'37,130", sharqiy uzunlik 69°06'51,990").*


5-nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 344 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 316 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 163 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'48,814", sharqiy uzunlik 69°06'56,184").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim to‘sig‘idan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 959 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 979 metr masofada 7-markaziy zovurini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'36,731", sharqiy uzunlik 69°07'37,507").*

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-9-85-9-131-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Shirin shahar tarkibiga qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'i

1 *Qo'shilayotgan yer uchastkasi chegarasining burilish nuqtasi va raqami*

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-9-85-9-131-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Sirdaryo viloyati Shirin shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Shirin shahri va Boyovut, Xovos tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Janubiy Mirzchoʻl kanali boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°14'50,303", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°05'24,936").*

A dan B gacha Boyovut tumani yerlari bilan 1 - 6 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda Mirzachoʻl kanalidan 85 metr masofada avtomobil yoʻli va zovurni kesib oʻtib aholi tomorqa devoriga tutashadi, keyin tomorqa devori boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 44 metr masofada ariqqa oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 319 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 537 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'25,556", sharqiy uzunlik 69°05'37,425").*

2 - nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 767 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 308 metr, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 258 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 39 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'15,850", sharqiy uzunlik 69°06'20,344").*

3 - nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 73 metr masofani oʻtib “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim toʻsigʻiga tutashadi, keyin sim toʻsiq boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 992 metr masofani oʻtib, sim toʻsiq boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'37,130", sharqiy uzunlik 69°06'51,990").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim toʻsigʻi boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 344 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 316 metr, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 163 metr masofani oʻtib, sim toʻsiq boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'48,814", sharqiy uzunlik 69°06'56,184").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi “ACWA Power Sirdarya” MChJ zavodi sim toʻsigʻidan zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 959 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 979 metr masofada

7-markaziy zovurini kesib o‘tib, Shirin shahri, Boyovut shahari va Toshkent viloyati chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'36,731", sharqiy uzunlik 69°07'37,507").*

B dan D gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 6 - 14 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

6 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 7-markaziy zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 476 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 79 metr masofada Do‘stlik kanaliga tutashadi, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3576 metr masofani o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'57,628", sharqiy uzunlik 69°09'08,872").*

7 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1099 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'26,916", sharqiy uzunlik 69°09'30,770").*

8 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 155 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'22,617", sharqiy uzunlik 69°09'34,056").*

9 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 117 metr masofada Do‘stlik kanalini kesib o‘tib, “Farhod GES” unitar korxonasi devoriga o‘tadi va devor bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 107 metr masofani o‘tib, devor burilishida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'26,012", sharqiy uzunlik 69°09'41,514").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i “Farhod GES” unitar korxonasi devori bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib, devor burilishida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'21,123", sharqiy uzunlik 69°09'50,099").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i “Farhod GES” unitar korxonasi devoridan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 101 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 50 metr masofani o‘tib, so‘ng avtomobil yo‘lini kesib o‘tib yo‘l bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 154 metr masofani o‘tib devorga tutashadi, so‘ngra devor bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 116 metr masofani o‘tadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 80 metr masofani o‘tib, devor bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'08,104", sharqiy uzunlik 69°09'49,321").*

12 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr masofada Shirin shahriga olib kiruvchi yo‘lni kesib o‘tib piyodalar yo‘lakchasiga o‘tadi va yo‘lakchaning g‘arb tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 17 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 79 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ng qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 10 metr masofani o‘tadi, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda ariq, “Farhod GES” unitar korxonosi devori bo‘ylab 45 metr masofani o‘tib, tomorqa to‘sig‘iga tutashadi va to‘siq bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 49 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 26 metr masofani o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'06,157", sharqiy uzunlik 69°09'41,778").*

13 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Do‘stlik kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 180 metr masofada avtomobil yo‘lini va temir yo‘lni kesib o‘tib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 974 metr masofani o‘tadi, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 119 metr masofada Do‘slik kanalini kesib o‘tib, Tojikiston Respublikasi va Shirin shahri, Toshkent viloyatlari chegara chiziqlari tutashgan joy, kanal bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'40,521", sharqiy uzunlik 69°10'16,699").*

D dan E gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 14 – 15 nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

14-nuqtadan 15-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°13'36,995", sharqiy uzoqlik 69°03'11,932").*

E dan A gacha Xovos tumanlari yerlari bilan 15 – 1 nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

15-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 276 metr masofani o‘tib, keyin temir yo‘lini kesib o‘tadi va avtomobil yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 217 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, so‘ngra qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 382 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 845 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'00,992", sharqiy uzoqlik 69°04'01,105")*

16-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 544 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 931 metr, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 115 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'28,435", sharqiy uzoqlik 69°04'45,292")*


17-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 19 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2053 metr masofada Janubiy Mirzacho‘l kanalini

kesib o‘tib, so‘ng kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1003 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'50,303", sharqiy uzoqlik 69°05'24,936").*

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-9-85-9-131-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Sirdaryo viloyati Shirin shahrining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Shirin shahrining ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Shirin shahri ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*